



Ilmiy, ijtimoiy-falsafiy, madaniy-ma'rifiy, adabiy-badiiy jurnal

MUASSISLAR: Beruniy tuman hokimligi

"Tafakkur-Tamaddun" OOO

"Beruniy avlodlari" jamoat fondi

HAMKORLARIMIZ:

O'zRFA Qoraqalpog'iston bo'limi

Qoraqalpoq davlat universiteti

Urganch davlat universiteti

TAHRIR HAY'ATI:

BOSH MUHARRIR:

Munavvara KURBANBAYEVA

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Anvar ALLAMBERGENOV

TEXNIK MUHARRIR:

Islombek ABDIKHAKIMOV

BO'LIM MUHARRIRI:

Muqaddas KURBANBAYEVA

Akmal SAIDOV, y.f.d., prof., akad.

Qahramon QURONBOYEV, s.f.d., prof.

Mehmet Munir Dadaoglu, phil.sc.d., prof. (Turkiya)

Roman GOPAL, fil.f.f.d (PhD), (Hindiston)

Azizulloh AROL, fil.f.f.d (PhD), (AQSH)

Almagul BAYRIYEVA, s.f.d., (DSc)

Zuhra REYMOVA, y.f.d., (DSc)

Karlig'ash UMAROVA, y.f.d., (DSc)

Xəlil İsmayıl oğlu İsmayılov, t. f.d, prof., (Ozarbayjon)

Anvar ABDULLAYEV, t.f.f.d, dots.

Makset KARLIBAYEV, t.f.d., k.i.x.

Kozimbek TUXTABEKOV, t.f.d., (PhD)

Umid BEKMUHAMMAD, t.f.d., (PhD), k.i.x.

Shoira NURULLAYEVA, t.f.n., dots.

Mamlakat JUMANIYAZOVA, t.f.n., dots.

Konul Bunyadzoda, falsafa fanlari doktoru, (Ozarbayjon)

Baxtiyor KARIMOV, fal.f.d., prof.

Marat NIYOZIMBETOV, fal.f.d.

Alima BERDIMURODOVA, fal.f.d.

Odilbek RADJAPOV, fal.f.f.d., (PhD)

Mangubek O'RAZMETOV, fal.f.d., (PhD)

Zarifboy DO'SIMOV, fil.f.d., prof.

Olmos ULVI Binnatova, fil.f.d., prof., (Ozarbayjon)

Azamat PRIMOV, fil.f.d., (DSc), prof.

Nasibullina Nurida Shaydullovna, fil.f.n., (Rossiya Federatsiyasi)

Shukurjon Norbayeva, fil.f.d., (DSc)

Bekposhsha RAXIMOVA, fil.f.n., dots., (PhD)

Qabil MAMBETOV, fil.f.f.d., (PhD)

Vahob RAHMONOV, fil.f.n., dots.

Doniyor YULDASHEV, fil.f.d (DSc)

Farrux Abbas oglu Rustamov, p.f.d, prof. (Ozarbayjon)

Qozoqboy YO'LDOSHEV, p.f.d., prof.

Qaxramon IBADULLAYEV, p.f.d., (DSc)

Masharib ABDULLAYEV, s.f.d., (DSc), k.i.x.

Nilufar KOSHANOVA, ped.f.f.d., (PhD)

Rana Hamid qızı Qadirova, psixol.f.d., prof. (Ozarbayjon)

Nargis ATABAYEVA, psixol.f.d., (DSc)

Dilafroz QARSHIYEVA, psixol.f.d., (DSc)

JAMOATCHILIK KENGASHI:

Sirojiddin SAYYID

Muhammad ALI

Kengesboy KARIMOV

Iqbol MIRZO

Qurbon SHONIYOZOV

O'rozboy ABDURAHMONOV

Murotboy JUMANOV

Adabiy maslahatchi:

Guliston MATYOQUBOVA

Rassom:

Alibek ABDURAHMONOV

Sahifalovchi-bezovchi: G'iyosiddin O'NAROV

Manzilimiz: Qoraqalpog'iston Respublikasi,

Beruniy tumani.

Web-sayt: <https://jurnal.tamaddunnuri.uz>

e-mail: tamaddunnuri1@gmail.com.

Telegram kanali: <https://t.me/tamaddunnuri>

Tel.: (+99888) 036 00 55, (+99897) 355 75 40.

Qog'oz bichimi 60x84 ¼. Nashriyot hisob tabog'i 28.

Indeks – 960. ISSN 2181-8258. "ADAD PLYUS" MCHJ

bosmaxonasida chop etildi. Adadi 300 dona.

Bosishga 2025-yil 29-dekabrda ruxsat etildi.

Toshkent shahri, Chilonzor ko'chasi, 28-uy.

2025-yil, 12-son (75).

Ushbu son "Tamaddun nuri" jurnali tahririyatining kompyuterida sahifalandi. Buyurtma №31.

Jurnaldan ko'chirib bosilganda "Tamaddun nuri" dan olindi deb izohlanishi shart. Matn hamda reklamalardagi ma'lumotlarning to'g'riligi uchun mualliflar mas'uldir. Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar tahrirlanadi, taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.



"Tamaddun nuri" jurnali Google Scholar

bazasida indekslanadi. Bu esa jurnalning ilmiy nufuzini oshirish va mualliflarning ilmiy ishlarini keng miqyosda targ'ib qilishga yordam beradi. Google Scholar orqali tadqiqotchilar va olimlar "Tamaddun nuri" jurnalida chop etilgan maqolalarni qidirib topish va ularga havola berish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Tahririyat Crossref DOI ning rasmiy a'zosi hisoblanadi va 10.69691 DOI prefiksiga ega. Har bir nashr va ilmiy maqolaga individual Crossref DOI raqami beriladi.



10.69691 DOI



INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE ISSN-2181-8258



Impakt faktor-9.347

SLIB.UZ

BIZNI IJTIMOYIY TARMOQLARDA QUYIDAGI MANZILLARDA KUZATING:



12.00.00 – “YURIDIK FANLAR”

Аскарров Носиржон Ибрагимович. Номланмаган ва аралаш шартномаларнинг тадбиркорлик фаолиятида қўлланилиши: Ўзбекистон, Россия ва Қозоғистон қонунчилигининг қиёсий-ҳуқуқий таҳлили.....	138
Номазов Ихтиёр Исмаилович. Ишот қилишнинг зарурий шартлари.....	212

13.00.00 – “PEDAGOGIKA”

Nurmamatova Zarifa Abdiraup qizi. Ikki tilda muloqot qiluvchi bolalar nutqi nuqsonlarini bartaraf etish yo'llari bo'yicha ota-onalarga va ustozlarga tavsiyalar.....	42
Botirov Ilhom Saydullayevich. O'quvchilarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning ahvoli va takomillashtirish yo'nalishlari.....	65
Haydarov Baxtiyor Tadjievich. 8–9 yoshli bolalarda egiluvchanlikni rivojlantirishning usuli sifatida gimnastikaga asoslangan mashg'ulotlar.....	100
Saparbayeva Indira Shadibekovna. O'zbek tili darslarida nutqiy kompetensiyani shakllantirishda milliy-madaniy kontentlar integratsiyasi.....	150
Abdullayeva Ra'noxon Nodirjon qizi. Nutqida og'ir nuqsonlari bo'lgan bolalar bog'langan nutqini rivojlantirish texnologiyalari.....	172
Raxmanberdiyeva Karima Saydanovna. Talabalarda chet tilini o'rganish kompetensiyalarini rivojlantirishda loyiha metodi.....	215
Jo'rayeva Mohigul. Aksiologik yondashuv asosida talabalarning badiiy-estetik savodxonligini oshirishning didaktik bosqichlari.....	226

19.00.00- “PSIXOLOGIYA”

Muazzamxon Xamdamova Xabibullo qizi. Talabalarda o'quv motivatsiyasini rivojlantirishning muhim shartlari.....	84
Qurbanboyeva Zebiniso Seyilxon qizi. Ayyub she'rlarining ijtimoiy-estetik qimmatini to'g'risida.....	91
Xudayberganov Azizbek Obidjonovich. Yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishning psixologik omillari.....	94
Nurjonova Shoira Hamdamovna. Yoshlarning virtual olamga qiziqishlarining ijtimoiy psixologik xususiyatlari.....	97
Rajabboyeva Aziza Davronbekovna, Rajabboyeva Sevinch Davronbekovna. Kompyuter o'yinlariga tobe o'smirlarning emotsional barqarorligi va ta'lim jarayonidagi zo'riqish omillari.....	194
Shomurotova Nilufar Davronbek qizi, Abdullayev Shoxzod Zarifboy o'g'li. Harbiy tasavvurlar va ijtimoiy qadriyatlar uyg'unligi, o'smir va talabalar psixologiyasida rivojlanish dinamikasi.....	197
Odamboeva Mashhura Murodbek qizi. O'quvchilarda sotsial intellekt omillarining shakllanishi va rivojlanishi.....	200
Shomurotova Nilufar Davronbek qizi. Ta'lim muassasalarida talaba qadriyatlariga ijtimoiy-psixologik yondashuvlar.....	203

Jurnal 2016-yil 28-sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot agentligi tomonidan № 0843 raqami bilan qayta ro'yxatdan o'tgan. O'zbekiston Respublikasi OAK tomonidan 2019-yil 30-yanvarda chop etilgan OAK rayosati qarorlari bilan tasdiqlangan ro'yxatga ko'ra 07.00.00 - “Tarix”, 09.00.00 - “Falsafa”, 10.00.00 -“Filologiya” ixtisosligi bo'yicha; OAK Rayosatining 2023-yil 31-oktyabrdagi 345-son qarori bilan 12.00.00 – “Yuridik fanlar”, 13.00.00 – “Pedagogika”, 19.00.00 – “Psixologiya” ixtisosliklari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

TALABALARDA CHET TILINI O'RGANISH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA LOYIHA METODI

*Raxmanberdiyeva Karima Saydanovna, Toshkent davlat
Sharqshunoslik universiteti "G'arb tillari" kafedrasida dotsenti, (PhD)*

PROJECT METHOD IN DEVELOPING FOREIGN LANGUAGE LEARNING COMPETENCES IN STUDENTS

*Rakhmanberdiyeva Karima Saydanovna, Associate Professor of the
Department of "Western Languages" of the Tashkent State University
of Oriental Studies, (PhD)*

ПРОЕКТНЫЙ МЕТОД РАЗВИТИЯ КОМПЕТЕНЦИЙ ИЗУЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ У СТУДЕНТОВ

*Рахманбердиева Карима Сайдановна, доцент кафедры "Западные
языки" Ташкентского государственного университета
востоковедения, (PhD)*



<https://orcid.org/000>

0-0001-6517-0252

e-mail:

Dilya21@bk.ru



Annotatsiya: Mazkur maqolada talabalarda chet tilini o'rganish kompetensiyalarini rivojlantirishda loyiha metodining pedagogik ahamiyati va samaradorligi yoritilgan. Unda loyiha metodining mohiyati, bosqichlari hamda uni ingliz tilini o'qitish jarayoniga joriy etish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Loyiha metodi asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni talabalarning mustaqil fikrlashini, ijodiy yondashuvini, kommunikativ kompetensiyasini va amaliy til ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishi asoslab berilgan. Shuningdek, CEFR talablari asosida loyiha metodini qo'llash orqali talabalarning o'qish, yozish, tinglab tushunish va og'zaki nutq kompetensiyalarini shakllantirish masalalari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari loyiha metodining chet tilini o'qitishda samarali pedagogik texnologiya ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: loyiha metodi, chet tilini o'qitish, kompetensiyaviy yondashuv, kommunikativ kompetensiya, mustaqil ta'lim, faol metodlar, ingliz tili, CEFR, pedagogik texnologiyalar, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim.

Abstract: This article examines the pedagogical significance and effectiveness of the project method in developing students' foreign language learning competencies. The essence and stages of the project method, as well as the possibilities of its implementation in the process of teaching English, are analyzed. It is substantiated that the educational process organized on the basis of the project method contributes to the development of students' independent thinking, creative approach, communicative competence, and practical language skills. In addition, the article considers the formation of students' reading, writing, listening, and speaking competencies through the application of the project method in accordance with CEFR requirements. The research findings demonstrate that the project method is an effective pedagogical technology in foreign language teaching.

Keywords: project method, foreign language teaching, competency-based approach, communicative competence, independent learning, active methods, English language, CEFR, pedagogical technologies, learner-centered education.

Аннотация: В данной статье рассматриваются педагогическая значимость и эффективность проектного метода в развитии компетенций изучения иностранного языка у студентов. Анализируются сущность и этапы проектного метода, а также возможности его внедрения в процесс обучения английскому языку. Обосновывается, что образовательный процесс,

организованный на основе проектного метода, способствует развитию у студентов самостоятельного мышления, творческого подхода, коммуникативной компетенции и практических языковых навыков. Кроме того, рассматриваются вопросы формирования у студентов компетенций чтения, письма, аудирования и устной речи посредством применения проектного метода в соответствии с требованиями CEFR. Результаты исследования показывают, что проектный метод является эффективной педагогической технологией в обучении иностранным языкам.

Ключевые слова: проектный метод, обучение иностранному языку, компетентностный подход, коммуникативная компетенция, самостоятельное обучение, активные методы, английский язык, CEFR, педагогические технологии, личностно-ориентированное обучение.

KIRISH. Loyiha metodi soʻzlarni yodlashga va oʻrganishga xizmat qilishi, nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etishi, talabalar tomonidan mustaqil rejalashtirish, tashkillashtirish va amalga oshirish imkoniyatini yarata oladigan boʻlishi kerak. Fanga tegishli mavzularni oʻqitish ketma-ketligi va davomiyligi faol metod tanlashga taʼsir koʻrsatadi. Faol metodlarning baʼzilari talabalarni faollashtirishga qancha koʻp vaqt talab qilsa, topshiriqlar yoki amaliy faoliyatlarni bajarishga ham shuncha vaqt talab etiladi. Oʻquv mashgʻulotida vaqt shunchalik chegaralangan boʻlishi mumkinki, qoʻllashda koʻp vaqt talab qiladigan faol metoddan foydalanish imkonini bermaydi. Baʼzi faol metodlarni qoʻllashda alohida sharoitlar talab qilinmaydi, ammo maxsus oʻquv-moddiy sharoitlar talab qiladigan faol metodlardan foydalanmoqchi boʻlsak, u holda didaktik taʼminotni amalga oshirishimiz lozim.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD.

Talabalarda chet tilini oʻrgatishda yodlash qobiliyatlarini rivojlantirishda mustaqil faoliyatni amalga oshirish jarayonining yetakchi va samarali metodi sifatida biz loyiha metodini koʻrib chiqdik. U quyidagi pedagogik vazifalarni hal qiladi:

“Loyiha” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

Pedagog loyiha metodi boʻyicha topshiriqlarni ishlab chiqadi. Talabalar mustaqil ravishda darsliklar, sxemalar orqali soʻzlarni, gaplarni tuzadilar, tarqatma materiallar asosida topshiriqqa oid maʼlumotlarni yigʻadilar.

MUHOKAMA. Talabalar mustaqil ravishda ish rejasini ishlab chiqadilar. Ish rejasida talabalar ish bosqichlarini, ularga ajratilgan vaqt va texnologik ketma-ketligini material va vositalar orqali rejalashtirishlari lozim.

Kichik guruhlar ish rejalarini taqdimot qiladilar. Talabalar ish rejasiga asosan topshiriqni

bajarish boʻyicha qaror qabul qiladilar. Talabalar oʻqituvchi bilan birgalikda qabul qilingan qarorlar boʻyicha erishiladigan natijalarni muhokama qiladilar. Bunda har xil qarorlar taqqoslanib, eng maqbul variant tanlab olinadi. Oʻqituvchi talabalar bilan birgalikda “Baholash varaqasi”ni ishlab chiqadi.

Talabalar topshiriqni ish rejasida asosida mustaqil ravishda amalga oshiradilar. Ular individual yoki kichik guruhlarda ishlashlari mumkin.

Talabalar ish natijalarini oʻzlari tekshiradilar. Bundan tashqari, kichik guruhlar bir-birlarining ish natijalarini tekshirishga ham jalb etiladilar. Tekshiruv natijalari “Baholash varaqasi”da qayd etiladi. Talaba yoki kichik guruhlar hisobot beradilar. Ish yakuni quyidagi shakllarning birida hisobot qilinadi: ogʻzaki hisobot; materiallarni namoyish qilish orqali hisobot; loyiha koʻrinishidagi yozma hisobot.

Oʻqituvchi va talabalar ish jarayonini va natijalarni birgalikda yakuniy suhbat davomida tahlil qiladilar. Oʻquv amaliyoti mashgʻulotlarida erishilgan koʻrsatkichlarni meʼyoriy koʻrsatkichlar bilan taqqoslaydilar. Agar meʼyoriy koʻrsatkichlarga erishilmagan boʻlsa, uning sabablari aniqlanadi.

Oʻqituvchi “Loyiha” metodini qoʻllashi uchun topshiriqlarni ishlab chiqishi, loyiha ishini dars rejasiga kiritishi, topshiriqni talabalarning imkoniyatlariga moslashtirishi, ularni loyiha metodi bilan tanishtirishi, loyihalash jarayonini kuzatib borishi va topshiriqni mustaqil bajarishlarini taʼminlashi lozim.

NATIJALAR. Ingliz tilini oʻqitish jarayonida joriy etilayotgan loyihalash metodi asosida quyidagi natijalarga erishish nazarda tutiladi:

— umumiy tarzda olinganda taʼlim

maqsadlari, uning mazmuni, metodlari, texnologiyasi, tashkil qilish shakllari va ta'lim tizimini boshqarishdagi yangilanish va ijobiy o'zgarishlar;

— konkret pedagogik faoliyatni tashkil qilishda pedagogning har kungi faoliyatidagi tub o'zgarishlar, xususan chet tilini o'qitish bo'yicha ta'lim maqsadlari, mazmuni, metodlari, texnologiyasi, darsni va o'qitish jarayonini tashkil qilish shakllari hamda ta'lim jarayonini boshqarishdagi ijobiy yangilanishlar;

— o'quv jarayonini zamonaviy o'quv rejalarini, o'quv dasturlari, o'quv-metodik ishlanmalar, darsliklar, metodik ko'rsatmalar, o'quv qo'llanmalar va ularning elektron ko'rinishlari bilan ta'minlash imkoniyati, ma'lumotlarning transparentligi;

— ingliz tilini o'qitish tizimiga milliylik va umumbashariylik tamoyillarining singdirilishi;

— o'quv jarayonida o'qituvchi va talaba faoliyatini baholash va bilimlarni nazorat qilishda yagona maqsadga yo'naltirilgan hamkorlik;

— ingliz tilini o'qitishda ta'lim mazmunini demokratlashtirish, liberallashtirish va munosabatlarni teng huquqli qilishga yo'naltirish.

Oliy ta'lim tizimida chet tili o'qituvchilarini tayyorlash jarayoniga Yevropa Kengashining "Chet tilini egallash umumyevropa kompetensiyalari: o'rganish, o'qitish va baholash" (CEFR — Common European Framework of Reference) xalqaro me'yorlarining tatbiq etilishi talabalarda faol muloqot muhitini yaratishga imkon beradi. Shu bois OTMga kirishda CEFR va IELTS (International English Language Testing System) mavjudligini inobatga olish joriy etildi.

Ingliz tili o'qituvchisidan har bir ma'ruza va seminar mashg'ulotlarini olib borishda quyidagi pedagogik talablarga alohida e'tibor berish talab etiladi:

— talabalarning avval olgan bilimlarini tizimlashtirish;

— ma'ruza materiallarini muammoli va interfaol usullarda taqdim etish;

— o'quv materiallarini muammo asosida tanlash;

— muammoning ilmiy-nazariy va tarixiy tavsifini ishlab chiqish;

— talabalar diqqatini muammo doirasida jamlash;

— muammoli masalalarga nisbatan to'g'ri

munosabatni shakllantirish;

— muammo yechimi orqali bilimlarni nazorat qilish;

— turli nazariy va faktik ma'lumotlarni mustahkamlash;

— uy topshiriqlari orqali muammoni chuqur anglash;

— talabalarni dars va darsdan tashqari faoliyatga keng jalb etish.

Oliy ta'lim mazmunida ingliz tilidan tanlangan o'quv materiallari auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar samaradorligini oshiradi. Metodlarni tanlashda o'qituvchi eng kam vaqt sarflab, eng samarali natijaga erishishga yo'naltirilgan usulni tanlashi lozim.

XULOSA qilib aytganda, OTMlarda ingliz tilini o'qitish jarayoni davlat ta'lim talablari asosida tashkil etilishi, talabalarda ilmiy poydevor shakllantirishi, fanga qiziqishni oshirishi, o'qish, yozish, tinglab tushunish va og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishi, ijodiy fikrlashga yo'naltirilgan bo'lishi zarur.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Фадеева Н.Б. Самостоятельная работа учащихся 6-7 классов на уроках иностранного языка при овладении устной (монологической) речью: Автореф. дис. на соиск. учен. степ. канд. пед. наук. - Л., 1987.
2. Лозовская Г.А. Организация самостоятельных работ студентов младших курсов вуза: Дис. на соиск. учен. степ. канд. пед. наук. - Новочеркасск, 1975. - 197с.
3. Пидкасистый П.И. Самостоятельная деятельность школьников в обучении. - М., 1980. - 240с. 109. познавательная, 146-б.
4. Белкин Е.Л. Основы педагогики высшей школы. Учеб.пособие. - М.: Педагогика, 1987 - 124с.
5. Рашидов Х.Ф. Теоретико-методологические и социально педагогические основы развития среднего специального, профессионального образования в Узбекистане (на материалах реализации национальной программы по подготовке кадров). Дисс. ... докт. пед.наук. - Т., 2005. - С.311.
6. Белкин Е.Л. Основы педагогики высшей школы. Учеб.пособие. - М.: Педагогика, 1987 - 124с.